



UDK: 430:412.5(045)

Shuhrat OMANOV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: omanov.shuhrat@mail.ru

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, PhD X.Nurullayev taqrizi asosida

NEMIS TILSHUNOSLIGIDA PARTIKELLARNING O'RGANILISH DARAJASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis tilidagi yuklamalarning umumiy nazariy jihatlari tavsiflangan, nemis tilida bu borada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, risolalar hamda monografiyalar tahlil qilingan, modal partikellarning leksikografik manbalardagi talqini mufassal yoritilgan.

Kalit so'zlar: Modallik, partikel, tahlil, risola, ilmiy manba, leksikografik manba, kommunikativ-pragmatik aspect, tasnif.

LEVEL OF STUDY OF PARTICLES IN GERMAN LINGUISTICS

Annotation

This article describes the general theoretical aspects of the German language, analyzes scientific research, articles, treatises, and monographs conducted in this area in German, and provides a detailed explanation of the interpretation of modal particles in lexicographical sources.

Key words: Modality, particle, analysis, treatise, scientific source, lexicographic source, communicative-pragmatic aspect, classification.

УРОВЕНЬ ИЗУЧЕНИЯ ЧАСТИЦ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В статье излагаются общетеоретические аспекты немецкого языка, анализируются научные исследования, статьи, трактаты и монографии, выполненные в этой области на немецком языке, а также дается подробное разъяснение интерпретации модальных частиц в лексикографических источниках.

Ключевые слова: Модальность, частица, анализ, трактат, научный источник, лексикографический источник, коммуникативно-прагматический аспект, классификация.

Kirish. Dunyo tilshunosligida tillarni turli aspektlarda o'rganish, uni klassifikatsiya qilish, so'zlarning ifodalayotgan turli semantik ma'nolaridan tortib to orfografik qoidalarini ishlab chiqish ishlari o'tgan XX asrning o'rtalarigacha yakunlandi, ya'ni struktural-semantik tilshunoslik o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga deyarli erishdi. Bu jarayonning davomi sifatida XX asr 60-yillarida dunyo lingvistikasida so'zga yangicha yondoshuv paydo bo'ldi, ya'ni shu paytgacha amalda bo'lgan struktural-semantik tilshunoslik o'rniga yangi lingvistik yo'nalishlarni o'zida mujassam etgan – sotsiokommunikativ tilshunoslik paydo bo'ldi. Strukturalizm oqimining asosiy kamchiligi faqat yozma nutqqa ko'proq e'tibor qaratilib, amalda kishilar tomonidan foydalaniluvchi og'zaki nutq e'tibordan chetda qoldi. Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak aksariyat holatda yozma til aspektlari tadqiqot obyekti sifatida ko'rildi-yu, kundalik muloqot tili, u orqali ifodalanayotgan mazmunga kam e'tibor berib kelindi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nemis tilida partikel atamasi ostida qaysi guruhdagi so'zlarni o'rganish bo'yicha turlicha qarashlar mavjud, biz esa

faqat bu tadqiqotchi olimlardan ayrimlarining fikrlarini hamda partikellarni qay tartibda klassifikatsiya qilganligini ko'rib chiqmoqchimiz. Bu sohada A.Krivosov, H.Weydt, H.Altman, J.Lyutten, W.Bublits, D.Frank, J.Jakobs, U.Bastert, G.Helbig va boshqa bir qator lingvist olimlarning tadqiqotlari juda mashhur, keyingi yillardagi tadqiqotlarda ham ularning klassifikatsiyasidan keng foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarda til va inson o'rtasidagi munosabat faol o'rganilmoqda. O'zaro munosabatlarda til birliklarning ahamiyati lingvistik tadqiqotlarning obyekti sifatida e'tirof etilmoqda. Mavzuni yoritishda qiyosiy tipologik, analiz va sintez, komponent tahlil, strukturaviy-semantik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslik fanida tilning bu tomonini o'rganish uning kommunikativ-pragmatik aspekti deb nomlandi. Mana shu aspektni yuzaga chiqishida "Partikel"- yuklamalarning ham o'ziga xos o'rni bor. Yuklamalarni tilshunoslikda o'rganish, ular orqali ifodalanadigan turli xil ma'nolarni tahlil qilish

bo'yicha turlicha ko'rinishda tadqiqotlar olib borilgan. Gerhard Helbig ta'kidlaganidek [4] uzoq vaqtlar mobaynida nemis tilshunosligida ham uning imkoniyatlariga e'tibor kam qaratilib kelindi, uni „Flickwörter“-“yamoq so'zlar” (Gabelentz 1901), „Läuse im Pelz unserer Sprache“-“tilimiz mo'ynasidagi bitchalar” (Reiners 1944), „farbloße Redefüllsel“-“rangsiz nutqni to'ldiruvchilar” (Lindqvist 1961), „Würzwörter“-“ziravor so'zlar” (Thiel 1962, Schroeder 1965), „Füllwörter“-“to'ldiruvchi so'zlar” (1964), „Sprachhülsen“-“til g'ilofi”, „Färbewörter“-“rang so'zlar” (Colditz 1966) va „unscheinbare Kleinwörter“-“ko'zga tashlanmaydigan kichkina so'zlar” (Tschirch 1968) sifatida tasvirlashgan va nutqda undan foydalanish yomon stilistik belgi deya qaralgan.

Bu holat A.Krivososov (1963) hamda H.Weydt (1969)ning tadqiqotlaridan so'ng o'zgarib partikellar ustidagi tadqiqotlar yangi pog'onaga ko'tarildi. „Die Partikellinguistik” (Henne 1979) yoki „Partikologie” (Weydt 1981) H.Weydt tomonidan ikki fazaga ajratilgan: birinchi faza strukturalizmning bir sohasi transformatik grammatikaga tegishli bo'lsa, ikkinchi fazada izlanishlar lingvistikadagi kommunikativ-pragmatik asosdagi muloqot aktlariga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi.

Germanist olimlarning keyingi yillarda olib borgan tadqiqotlari hamda nemis tili bilan boshqa tillarni kontrastiv asosda o'rganish shuni ko'rsatayotgani, nemis tili boshqa tillarga qaraganda partikellarga boy til ekan. Ayrim tadqiqotchilar shularga asoslangan holda partikellarni nemis tilining tipik belgilaridan biri sifatida qarab kelishmoqda. Mazkur tadqiqotda ham ushbu partikellarning ba'zi bir jihatlari o'zbek tili bilan qiyoslangan holda yoritib o'tishga harakat qilindi.

„Partikel” atamasi lotin tilidan olingan bo'lib „parts, pars” „qismcha, bo'lakcha” degan ma'noni anglatadi. Nemis tilida bu atama ostida o'zgarmaydigan, gap bo'lagi bo'lolmaydigan so'zlar guruhi tushuniladi, ya'ni yordamchi so'zlar guruhi tushuniladi, boshqa tomondan esa mana shu yordamchi so'zlar bilan bir guruhga mansub o'zgarmaydigan, gapga yoki ayrim gap bo'lagiga qo'shimcha ma'no yuklaydigan so'zlar guruhi sifatida ham o'rganiladi. Struktural tilshunoslikda lingvistlar partikellarni tadqiq qilishga katta e'tibor qaratmaganlar. Yuqorida ham partikellarga nisbatan germanist olimlarning munosabatlari qanday bo'lgani ko'rsatib o'tildi. Bunga sabab ularning biror bir mustaqil ma'no anglatmasligi, bironta gap bo'lagi vazifasida kelmasligi, o'zi mustaqil qo'llanmasdan boshqa so'zlar bilan birgalikda ma'no anglatishi kabilar bo'lishi mumkin. Tilning kommunikativ vazifalari o'rganila boshlanishiga turtki bo'lgan muhim hodisa, shubhasiz, 60-yillardagi shakllangan dunyodagi yangicha iliq kayfiyatdir. Bu kayfiyat davlatlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, ta'lim sohasidagi aloqalarning rivojlanishiga imkon berdi, tillarning qiyosiy o'rganilishida yangi bir bosqich bo'ldi. Endilikda har bir element, ayniqsa, og'zaki nutqdagilar, ular anglatadigan situativ mazmunlarni chuqur o'rganish, xorijlik bilan

muloqotga kirishganda so'zlovchi tinglovchiga aytayotgan har bir gapidagi axborotiga o'zining munosabatini ifodalash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan lingvistik vositalar chuqur o'rganila boshlandi. Aslida tillarni qiyoslash orqali o'rganish bu tillarning rivojiga hissa qo'shadigan ijobiy hodisadir, chunki til ham olamdagi boshqa narsalar kabi bironta til bilan qiyoslanganda bor imkoniyatlarini namoyon qila oladi, undagi kamroq o'rganilgan qirralar aniqroq ko'zga tashlana boshlaydi. 60- yillardagi lingvistikadagi sodir bo'lgan yangiliklarga ham mazkur omillar sabab bo'lgan deya olishimiz mumkin. Fikrimiz tasdig'i sifatida germanist olim Harald Weydtning nemis tilidagi modal so'zlarning fransuz tilida ifodalanishi ustidagi tadqiqotidan so'ng partikellarni o'rganish olimlar aytganidek „kutilmaganda gullab yashnab ketdi” [2], chunki olim bu tadqiqotda partikellarni kommunikativ-pragmatik aspektda o'rgandi. Bungacha rus tadqiqotchilarining nemis tilidagi yuklamalarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlari mavjud edi, ammo ular nemis tilidagi partikellarni o'rganishga structural-generativ tilshunoslik nuqtai nazaridan yohdashgani sababli partikellarni bir tomonlama tadqiq qilganlar. Yuqorida ham nemis tilshunosligida modallik kategoriyasini tadqiq qilish masalasini rus tilshunoslari boshlab berganligini aytib o'tgandik. Bu sohadagi ishlar haqida A.E.Zaikin o'z tadqiqotida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tgan: A.S.Krashennikovning bir qancha ilmiy maqolalari, „Modalniye glagoli i chastitsi v sovremennom nemetskom yazike” (1958) kitobi, yana shu davrda S.E.Mixelevichning „Logiko-smisloviye chastitsi v sovremennom nemetskom yazike”(1960), V Shmelevning „O vzaimootnoshenii narechiy, chastits i soyuzov”(1969) dissertatsiyalari, boshqa bir qancha rus germanist olimlarining nemis tilidagi modallik va uning tarkibiy qismi hisoblanadigan partikellarni o'rganish bo'yicha ilmiy ishlari va tadqiqotlari mavjud [3].

G.Helbig o'zinig „Lexikon detscher Partikeln”(1988) kitobida bir qancha olimlarning fikrlarini umumiy lashtirgan holda qo'yidagicha klassifikatsiya qiladi.

1) Abtönungspartikeln oder Modalpartikeln (Satzpartikeln, Einstellungspartikeln).

Aber, auch, bloss, denn, doch, eben, etwa, halt, ja, schon, vielleicht, wohl, allerdings, immerhin, jedenfalls;

2) Gradpartikeln(Rangierpartikeln). Auch, ausgerechnet, eben, genau, besonders, gerade, nur, selbst, sogar....

3) Steigerungspartikeln(Intensifikatoren oder Gradmodifikatoren) etwas, ganz, sehr, ausserordentlich, höchst, weitaus, ziemlich.

4) Temporalpartikeln. erst, noch, schon,

5) Antwortpartikeln. ja, nein, doch, eben, genau.

6) Vergleichspartikeln. wie, als, denn.

7) Interjektionspartikeln ah! nanu! oweh!

8) Negationspartikeln kein, nicht

9) Infinitivpartikel zu. [4]

„DUDEN Grammatik” (2008)da Partikellarga quyidagicha ta'rif beriladi [5]:

“Partikellar ayniqsa og‘zaki nutqda ko‘proq uchraydi. Bir-biridan butunlay farq qiladigan vazifalarni bajaradi. Gradpartikel sifatida biror xususiyatning tezkorligi haqida ma‘lumot bersa, Fokuspartikel sifatida biror bir gapning ma‘lum qismini ta‘kidlab ko‘rsatadi, Negationspartikel sifatida biror gapni yoki gap bo‘lagini inkor qiladi, Abtonungspartikel sifatida gapda so‘zlovchining munosabatini, ifodalanayotgan xabarda tutgan o‘rmini ko‘rsatadi, Gesprächspartikel sifatida muloqotni borishini boshqarib turadi. Partikellarni klassifikatsiya qilib har bir ma‘no guruhiga bir qancha partikellarni kiritib o‘tgan. Umuman olganda bu manbada partikellar deb quyidagilar sanab o‘tilgan:

Die Gradpartikel (Steigerungspartikel, Intensitätspartikel), die Focuspartikel, die Negationspartikel, die Abtonungspartikel (Modalpartikel), die Gesprächspartikel, Antwortpartikeln, Interjektion (Ausdrucksartikel), Onomotopoetikum.

Ularning har biriga quyidagicha ta‘rif berilgan:

Gradpartikel(Intensitätspartikel, Steigerungspartikel)lar qo‘yidagilar: wenig, etwas, einigermaßen, fast, ziemlich, so, sehr, ausgesprochen, besonders, ungemein, überaus, ganz, äusserst, zutiefst, höchst, zu.

Sie war wenig vorsichtig. Sie war einigermaßen vorsichtig. Sie war sehr vorsichtig. Sie war äusserst vorsichtig. Sie war zu vorsichtig.

2. Fokuspartikellar o‘zi birikib kelgan so‘zlar bilan birgalikda gapning informativ yadrosini tashkil qiladi, aniqrog‘i gapning biror qismini informativlik qiymatini oshirish bilan belgilab beradi. Masalan: Nur er kommt (keine andere). Sogar die Gäste haben getanzt (nicht nur das Brautpaar). Die Gäste haben sogar getanzt (und nicht nur gegessen und sich unterhalten).

3. Negationspartikel gapdagi biror bo‘lakni yoki butun gapni inkor qiladi. Masalan: Mein Bruder kommt heute nicht. Er geht morgen nicht in die Schule.

4. Abtönungspartikel (Modalpartikel)

5. Gesprächspartikel (muloqot partikellari) o‘z ichiga Gliderungspartikel (bo‘lak partikel) va Antwortpartikel (javob partikel)ni o‘z ichiga oladi.

- Gliederungspartikel bir alohida muloqot bosqichlarini ajratib turishga xizmat qiladi, suhbatdoshlar uchun kontakt hosil qiladi yoki qo‘llab-quvvatlab turadi. O‘z navbatida, u ham so‘zlovchi va tinglovchi signallariga bo‘linadi.

1) so‘zlovchi signallari – ja, äh, ähm, so, also, dann, nun, gut, na ja, ha, klar, sicher, genau, aber, übrigens, Entschuldigung u.a.

2) tinglovchi signallari – ja, jaja, hm, mhm, aha, klar, gut, stimmt, genau, eben, richtig, bitte? wie bitte? was? u.a.

6. Interjektion (Ausdrucksartikel) –undovlar

Partikellarning o‘zlarining qisqaligi bilan ko‘zga tashlanib turadi. Omonomiya ular o‘rtasida ancha kuchli. Masalan :

Wir wollten kommen, aber der Zug fiel aus. Konjunktion-bog‘lovchi vazifasida.

Das ist aber schön! – Abtönungspartikel, so‘zlovchining hayratlanishini ifodalayapti.

Heute regnet es nicht. Negationspartikel – inkorni ifodalayapti.

Ist das nicht ein herrliches Wetter? Abtönungspartikel, hayajonni ifodalayapti.

Es ist schon drei Uhr. Temporaladverb-payt ravishi

Was will der schon ausrichten. Abtönungspartikel

War der Vortrag nicht interessant? – Schon Antwortpartikel vazifasida kelyapti.

Partikellar haqida Harald Weydt va Elke Hentschel „Handbuch der deutschen Grammatik“ (2008) kitobida keng ma‘lumot bergan. Nemis tilida keng ma‘noda qaralganda quyidagilar partikellarga mansubligini ko‘rsatib o‘tgan va ularga ta‘rif bergan.

1.Präpositionlar gapdagi nominal elementlarni boshqa bo‘laklar bilan bog‘laydi. Gap bo‘laklarining tarkibida muhim va ajralmasdir.

2.Konjunktion (bog‘lovchi)lar sintaktik funksiyani bajaradi, gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lab keladi.

3.Konjunkionaladverb (ravish)lar gaplarning semantik bog‘lanishiga xizmat qiladi. Ammo hammasi ham partikel emas.

4.Modalwörter (modal so‘zlar) gumon, taxmin ma‘nolarini ifodalaydi.

5.Abtönungspartikel o‘zi qatnashayotgan kontekstga munosabatni hosil qiladi va nutqda so‘zlovchining o‘rmini ko‘rsatadi.

6.Intensivpartikel ifodalanayotgan mazmunni shaklini o‘zgartiradi, uni ozaytiradi yoki kuchaytiradi.

7.Fokuspartikellar gapdagi biror bo‘lak oldidan kelib o‘sha bo‘lak boshqalaridan ko‘ra ko‘proq informatsiya berayotganligini ko‘rsatib turadi.

8.Antwortpartikellar so‘roq so‘ssiz so‘roq gaplarga javob bo‘lib xizmat qiladi.

9.Negationspartikel inkorni ifodalash uchun xizmat qiladi [6].

Boshqa bir lingvist olim Ulrix Engel “Deutsche Grammatik” (2004) kitobida partikellar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tgan:

Präpositionen, Adverbien (ravish), Subjunktionen, Kopulapartikeln, Modalpartikeln, Rangierpartikeln, Konjunktionen, Gradpartikeln, Satzäquivalente, Vergleichspartikeln, Abtönungspartikel kabilarga ajratgan. Bu klassifikatsiyada bizni qiziqtiradigan nuqta “Modalpartikel” va “Abtonungspartikel” atamalarini qo‘llanilishida. Bungacha bu atamalarni bir-biriga sinonim sifatida qabul qilib kelingan. Ushbu adabiyotda “Modalpartikel” deb konstativ gap boshida tura oladigan va so‘roq so‘ssiz so‘roq gaplarga javob bo‘lib keladiganlar deya ta‘rif berilgan. Allerdings, anscheinend, beinahe, doch, einigermaßen, fast, freilich, grösstenteils, halbwegs, höffentlich, keinesfalls, keineswegs, leider, mitnichten, möglicherweise, schwerlich, selbstredend, sicherlich, teilweise, unzweifelhaft, vielleicht, zweifellos kabi modalpartikellar ko‘rsatib o‘tilgan. „Abtönungspartikel“

sifatida esa boshqa olimlar fikriga qo'shilgan holda ta'rif bergan va tarkib ham bir xil [7].

W.G. Admoni nemis tili grammatikasidagi partikellar to'g'risida o'z mulohazalarini bildirib, jumladan, shularni ta'kidlab o'tadi: „Partikellar o'ziga o'xshagan boshqa yordamchi so'zlardan farqli ravishda, ko'pincha, har xil gap bo'laklariga bog'langan bo'ladi, ammo, ko'pgina holatlarda fe'lga, aniqrog'i, kesimga tegishli bo'ladi. Predlog yoki artikelga o'xshagan boshqa

1-jadval

1. Begrenzende und identifizierende Partikeln (chegaralovchi va tenglashtiruvchi yuklamalar)	nur, sogar, gerade, bloss, allein, eben, auch, selbst
2. Verstärkende Partikeln (kuchaytiruvchi yuklamalar)	sehr, durchaus, zu, gar, mal, so, ja, ganz, sogar, eben, gerade
3. Gegenüberstellend-verstärkende Partikeln (qarama-qarshi qo'yuvchi-kuchaytiruvchi yuklamalar)	dennoch, doch, wohl, ja, aber, zwar, denn
4. Grammatikalisierte Partikeln (grammatikalashgan yuklamalar)	es

Partikellarning soni xuddi modal so'zlar kabi anchani tashkil etadi. Ammo nemischa gaplarning sintaktik qurilishidagi roli biroz chegaralangan, ayniqsa, bu boshqa tillar bilan qiyoslaganda turli chigalliklarni keltirib chiqaradi"[8; 212-b.].

Umuman nemis tilidagi partikellarning tadqiqotlar miqyosi juda keng va xilma xil bo'lib, ularda nafaqat nemis tili doirasida balki boshqa bir qancha tillar bilan qiyoslash orqali ham o'rganish bo'yicha ancha ishlar mavjud. Mazkur ishni tayyorlash jarayonida o'sha ishlardan unumli foydalanildi.

Xulosa va takliflar. Badiiy asarlar tarjimasini yaxshilash, tarjimonlarga, umuman til o'rganuvchilarga

ADABIYOTLAR

1. Irisqulov M.T. Tishunoslikka kirish.-T.: "Yangi asr avlodi", 2009 149.
2. Waydt H. Abtönungspartikel. Die deutschen Modalpartikeln und ihre französischen Entsprechungen. Bad Hamburg/Berlin/Zürich: 1969.
3. Заикин А.Е. Коммуникативно-прагматические функции немецких модальных частиц. Авто реф. к.ф.н. Москва: 1985.
4. Helbig. G. LEXIKON der deutschen Partikeln. "VEB Verlag Enzyklopadie" Leipzig, 1988, 28-29.
5. DUDEN die Grammatik. Berlin: 2008, 594-601.
6. Weydt H./ Hentschel E. Handbuch der deutschen Grammatik. Berlin. "de Gryuter Verlag" 2008, 274.
7. Engel U. Deutsche Grammatik – Neubearbeitung-. Myunchen. "IUDICIUM Verlag", 2004, 383.
8. Admoni W. Теоретическая грамматика немецкого языка. Москва. "Просвещение" 1986, 212-213.
9. Helbig G. /Buscha J. Deutsche grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Berlin. Langenscheidet. 2001, 423.
10. Wörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Berlin/New York. "de Gryuter Verlag" 2000, 1323.